



KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING ADABIY TAHLIL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH (5 – 9-SINFLAR MISOLIDA)

Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kreativ yondashuv asosida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari xususida atroflicha so'z yuritilgan. Kreativ yondashuv o'quvchilarning dars mavzularini o'zlashtirish jarayonlarini tezlashtirishi, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, vazifalarni ijodiy bajarishga bo'lgan intilishning kuchayishiga xizmat qilishi ta'kidlangan. O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, darslarni yangi texnologiya hamda metodlar orqali o'tish o'quvchida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ulardagi ijodiylik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.*

Tayanch so'zlar: *kreativ yondashuv, innovatsion ko'nikma, interfaol metodlar, tafakkur, pedagogik texnologiya, didaktika, ta'lim sifati.*

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis hamda O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'lim xizmatlari sifatini oshirish hamda jamiyatni rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab bergan. Mamlakat salohiyati bilim hamda tafakkurda ekanligiga urg'u berib, "ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li"¹ ekanligini ta'kidlagan. Mana shunday fikrlar esa o'z navbatida, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining oldida naqadar dolzarb vazifalar qo'yilganidan dalolat beradi. Ushbu jarayonda esa pedagog muntazam o'z ustida ishlab, takomillashtirilgan o'qitish texnologiyalaridan, yangicha o'qitish metodikalaridan unumli foydalangan holda o'quvchilarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi zarurdir. Dunyo miqyosida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlariga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash, raqamli iqtisodiyot sharoitida ko'p tarmoqli axborotlarni izlash, qayta ishlash, tizimli va tanqidiy fikrlash, kreativ texnikalarni o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish esa eng muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Ayniqsa, o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, hamkorlikdagi loyihaviy faoliyat orqali ta'lim olayotgan yoshlarni, shu jumladan, 5-9-sinf o'quvchilarini erkin fikrlashga o'rgatish, darslarni, xususan, adabiyot fanini tahlil qilish orqali kreativ shaxsni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Kreativ pedagogikaning imkoniyatlarini kengaytirib borish orqali o'quvchilarning ijodiy-intellektual salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga murojaatnomasi. 20-dekabr 2022-yil.



etadi. Mamlakatimizda maktab ta'limini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, o'quvchilarda sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish, ularni kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirishga o'rgatish, zamonaviy kasblarni egallash layoqatini tarbiyalashga katta e'tibor qaratish pedagogdan ulkan salohiyat, kuchli bilim hamda tinimsiz harakatni talab etadi.

Darhaqiqat, elektron xizmatlar, virtual olam, internet singari inson ijodkorligining hayratlanarli namunalariga duch kelishimiz tabiiy holatga aylanib ulgurdi. Mana shunday ijodiy tafakkurni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidan boshlanishini esa barchamiz yaxshi bilamiz. Ta'limning sifati va samaradorligini oshirishda o'qitishning zamonaviy usullari, shakl hamda vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitishning noan'anaviy metodlari ham muhim o'rin egallaydi. Amerikalik psixolog P.Torrensning fikricha, "kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi"².

Shu o'rinda aytish lozimki, har bitta inson qaysidir ma'noda, kreativ qobiliyat bilan dunyoga keladi. Ana shuni qaysi yo'lga yo'naltirish hamda rivojlantirish o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Demak, umumta'lim maktablarida ta'limning barcha turlarida 5–9-sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish barkamol avlodni tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Kreativlik tushunchasi "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor, ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar bilan qarash hamda tahlil etish, desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Kreativlikning zamirida originallik, noodatiylik va erkinlik mujassamdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida aks etib turadi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni o'tkirligini ifoda etadi. Qolaversa, iqtidorning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'quvchining o'zidagi mavjud bilimning ko'p qirrali bo'lgani bilan baholanmaydi, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechishda noodatiy yondashish qobiliyati, kutilmagan qarorlar chiqara olish fazilatlarida zohir bo'ladi. "Didaktik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning xatti-harakatlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Bunday o'zgarishlarni kuzatish, hisobga olish pedagogik tadqiqotlarning asoslaridan hisoblanadi. Yuqoridagi o'zgarishlar, o'qituvchining didaktik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy xatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkon beradi. o'quvchilar va o'qituvchilarning o'quv ishlari, sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, metod va vositalari

²Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – Санкт-Петербург: СПГУТД, 2006.



orasidagi bog'liqliklar tabiat qonuniyatlari qanday obyektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday obyektiv xarakterga egadir"³. Sinfda kreativ fikrlashni bunday o'ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o'zaro chambarchas bog'langan bo'ladi. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag'batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o'z-o'zidan shakllanadi, Ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini ragbatlantirilishi ularning yaratuvchanlik qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini, o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarida va faoliyatlarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

Bu o'z navbatida, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar tarzida shakllanishi hamda mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Fikr tarbiyasiga qaratilgan ilmiy-amaliy manbalar eng qadimgi yozma yodgorliklardan bo'lmish "Avesto"da ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal ko'rinishida o'z ifodasini topgan. Sharqning buyuk allomalari bo'lmish Al-Buxoriy, At-Termiziy, Burxoniddin Marg'iloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning ijodiy faoliyatida bu borada chuqur fikr-mulohazalar yuritilgan. Ichki ijodiy samaradorlik o'quvchini biror vazifani ijodkorona amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun kerakli ishonchga nisbatan aytiladi. Maqsadga yo'nalganlik va kreativlik borasida o'ziga ishonch bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ayrim tadqiqotchilar insondagi ichki ijodiy samaradorlikning qiyinchilikka qaramasdan harakat qilishi, nihoyat oldiga qo'ygan vazifani to'liq bajarishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Insondagi bunday qat'iy ishonch, o'z navbatida, insonda mavjud bo'lgan tirishqoqlik, kayfiyat va bajarilishi kerak bo'lgan vazifaning ijtimoiy holatiga bog'liq ekanligini qayd etish o'rinli bo'ladi.

Tomas Edisonning qayd etishicha, "kreativlik – g'ayriixtiyoriy jarayon" ekan. Kreativ fikrlovchi insonlar biror bir manzarani o'zgacha tasavvur etadi, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi. Mana shunday kreativ tafakkurni rivojlantirish tashkil etilgan darsning qanday metod hamda usullardan foydalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bunda esa interfaol usullar yaqindan yordan beradi. Interfaol ta'lim turlaridan biri esa kreativ ta'lim hisoblanadi. Kreativ usulda o'tilgan mavzuni o'quvchi to'liq o'zlashtirishi bilan birga, ijodkorlik qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Adabiyot fanini o'qitishga kompetensiyaviy yondashuv yoshlarni biror ijodkorning asari yoki o'zi haqidagi bilimini oshirishi bilan qatorda muammoli vaziyatlarda mana shu bilimlardan o'rinli, maqsadli foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Agar o'quvchida she'r yozishga moyillik bo'lsa, u ijodiy matnni she'r orqali ham ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Darvoqe, ta'lim

³Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash: darsiik / N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo'ysinov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 456-b.



tizimida o'quvchilar lirik turning deyarli barcha janrlari bilan tanishishi, ulardan estetik zavqlanishi zarur jarayon hisoblanadi. Lirik asarlar tahlili bilan bog'liq eng muhim jihat avvalo, badiiy matn o'qib, o'zlashtirilishi joizdir. Shundan keyin esa tahlilga tortilishi o'rinli bo'ladi. O'rganilayotgan asarni butunlay yoki ayrim qismlarini o'qituvchi yoddan ifodali aytib bersa, o'quvchilarning diqqatini oson jalb qiladi. Ular o'qituvchisining adabiyotga, she'riyatga muhabbatini his qiladilar, butun e'tiborlarini sharhlanishi lozim bo'lgan she'r yoki hikoya matniga, uning shakliy tarovati, mazmuniy mohiyatiga yo'naltiradilar. Badiiy matn nafaqat o'qib eshittirish, balki yoddan ifodali aytib berilishi kerak. Bu esa o'z navbatida, tahlil qilinayotgan matn qismlari o'rtasidagi yaxlitlik, uzviylik ham buzilmasligini ta'minlaydi.

Adabiy ta'limda nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilarning ham ko'plab she'r yodlashi muvaffaqiyat garovidir. She'rni yod olish o'quvchi xotirasi bilan bog'liq jarayon bo'lsa-da, she'rdagi estetik mohiyat, hissiy-emotsional ifoda, badiiy latofat uning qalbidagi hislarini tarbiyalashga, kommunikativ, og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ma'naviyatini boyitishga ulkan hissa qo'shadi. Buning uchun o'qituvchidan o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, ta'limdagi samarali metod hamda usullardan ham xabardorlikni talab etadi. Chunki kelajakdagi yangi innovatsiyalar va ixtirolarning barchasi aynan kreativ kompetensiya orqali vujudga keladi. "Insonning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini tashxis qilish bilan bog'liq kasbga yaroqlilik darajasini baholash elementlarining paydo bo'lish tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Eramizgacha bo'lgan III ming yillikdayoq qadimgi Vavilonda mirzalar tayyorlovchi maktabda bitiruvchilar sinovdan o'tkazib borilgan"⁴.

Ta'kidlash lozimki, har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Ta'lim olayotgan yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi. Kreativ yondashuv o'quvchilarning bir-birlari bilan, o'qituvchi, dialog, ta'lim, ishbilarmon va rolli o'yinlar shaklida turli xil axborot manbalari bilan faol samarali hamkorligi, yangi ijtimoiy hamda professional tajribani o'zlashtirish uchun o'quv (kasbiy) vazifalarni hal etishga asoslangan aniq vaziyatlarni tahlil qilish sifatida ko'rib chiqiladi. Bu metodlar qo'llanganida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Shuni ham aytish lozimki, lirik asarlarni tahlil qilishda samarali natijaga erishish uchun adabiy ta'lim jarayonida quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Xususan:

⁴Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash: darsiik / N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo'ysinov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 456-b.



– har qanday lirik asar iloji boricha o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan yoddan ifodali aytib eshittirilishi yoki mohir suxandonlar tomonidan ifodali ijro etilgan video-audio tasmalaridan foydalanishi;

– she'ning mavzusi va mazmuni bilan tanishgach, dasturga tayangan holda uning o'rganilishi ko'zda tutilgan asosiy jihatlarini belgilashi;

– matndagi lug'at so'zlar izohi ustida ishlashi, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni leksik ma'nosi hamda she'riy matn mazmunida ifodalanayotgan ma'nosidagi farqlanishlar ustida to'xtalishi;

– matnning umumiy mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi sharhlangach, ijodkorning badiiy niyatini shakllantirishga xizmat qilgan, mazmuni gavdalantirgan shakliy unsurlarni aniqlashi, bunda, birinchi galda band, bayt, misralarni tayin etgan qofiya, radif, turoqlar va ularning mazmuni yuzaga chiqarishga va ma'no qatlamlarini shakllantirishga qo'shgan hissa ustida to'xtalish joiz.

She'riy asar haqidagi umumiy tasavvurlar shakllangan bandlar alohida-alohida, baytma-bayt, misrama-misra tahlilga tortiladi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- asosiy e'tibor ijodiy ishga qaratilishi;
- ta'lim samarasi yuqori bo'lgan o'qish-o'rganish;
- o'quvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddati o'quvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga murojaatnomasi. 20-dekabr 2022-yil.
2. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – Санкт-Петербург: СПГУТД, 2006.
3. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash: darsiik / N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo'ysinov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus taiim vazirligi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 456-b.